



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Kurbonov Zayniddin Oltinovich<sup>1</sup>, Bo'riboeva Muqaddas Zayniddin qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

<sup>2</sup>Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

## QIPCHOQ LAHJASIDAGI IJOBIY MA'NOGA EGA SIFAT SO'Z TURKUMIGA OID AYRIM SO'ZLAR IZOHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, asosan, adabiy tilda uchramaydigan, qipchoq lahjasiga mansub ma'lum bir hudud shevasida iste'molda bo'lgan sifat so'z turkumiga oid ijobiy ma'nodagi hamda ijobiy-salbiyligiga ko'ra betaraf ma'noli ayrim sifat so'zlar topilib, o'sha so'zlarning ma'nolari izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Zo'ravonlik, tarbiya, oila, fiziologiya, umidsizlik, qo'rquv, aybdorlik, nafrat, jabrlanuvchi, kuzatuvchi, tajovuz, bezorilik.

Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim[1]. Bu uchun esa o'z tilining, o'z milliy mafkurasining nozik qirralarini-da, bilishi va o'rganishi suv va havodek muhim. Milliy madaniyatni anglashi uchun, albatta, ona tili asosiy manbadir. Ma'lumki, til doimiy o'sish va rivojlanishda bo'lgan hodisa sifatida leksik, morfologik, fonetik, sintaktik jihatdan o'zgarib, takomillashib boradi. Xususan, o'zbek dialektlarining xilma-xilligi, lisoniy hodisalarning hududiy farqlanishi o'zbek milliy tilining ildizlari nechog'lik mustahkam, ifoda imkoniyatlarining boy ekanligini isbotlaydi. O'zbek shevalari uch katta dialektga birlashsada, O'zbekiston hududidagi har bir viloyat, tuman yoxud qishloq shevasi muayyan farqlarga ham ega. Buni Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo Navoiy, Jizzax viloyatlarining bir necha tuman va qishloqlarida; Shimoliy Xorazm, Ohangaron vodiysida, Mirzacho'l va O'ratepa atrofida yashovchi aholi iste'molida bo'lgan qipchoq lahjasi asosida ham ko'rish

mumkin. Qipchoq urug‘lari eng qadimgi urug‘lardan biri hisoblanadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida Mahmud Qoshg‘ariy o‘z davrida katta mavqega ega bo‘lgan bajanak, o‘g‘uz, yamak, bashg‘irt, basmil kabi 20 til ichida qipchoq tilini ham qayd etib o‘tadi[2].

Qipchoq urug‘lari va tili xususida XIII–XIV asrga tegishli yodnoma “Attuhfatuz zakiyati fillug‘otit turkiya” (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob kitob)da ham qimmatli tarixiy lingvistik ma‘lumotlar mavjud. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruhi vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida qipchoq, nayman, qang‘li, laqay, uyshin, qoraqalpoq, saroy, qiyot, xitoy, tuyoqli, arg‘in kabi ko‘pgina urug‘-qabilalar bor. O‘zbek baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilardir. Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari A.Shcherba, V.V.Reshetov, M.Mirzayev, F.Abdullayev, X.Doniyorov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur maqolada Samarqand viloyati, Qo‘shrabot tumani aholisining leksikasida uchrovchi ayrim ijobiy ma‘noli sifatlarni ko‘rib chiqamiz. Keltirilgan hudud aholisining shevasiga murojaat qilinganda ushbu sifatlarning ikki turga bo‘lindi. Bular fonetik va leksik farqlanuvchi sifatlardir. Biz har ikkala turga kiruvchi sifatlarni bir muncha tahlil qilamiz.

**I.** Ijobiy ma‘noli fonetik farqlanuvchi sifatlarni ham o‘z ichida tovush almashinishi va tovush ortishiga qarab bo‘lishimiz mumkin:

**Bala** – [ бәлә]- Ma‘nosi: balo, uddaburon, **Ovuj** – [овуж]- Ma‘nosi: avj, zo‘r

**II.** Leksik farqlanuvchi ijobiy ma‘nodagi sifatlarning anchaginani tashkil etadi. Bular:

**Alpovuz** – [ әлпәвүз]-Ma‘nosi: **katta, bahaybat, alpdek** ma‘nosida qo‘llanilib keladi, bizning fikrimizcha, leksema tarkibidagi *-ovuz* affiksi adabiy tildagi *-dek/-day* qo‘himchasining shevadagi varianti hisoblanadi. **Bejay** – [ бәжәй] -Ma‘nosi: juda, anchagina, **Iti** – [Ыты]-Ma‘nosi: zo‘r, **Odira** – [одыра]-Ma‘nosi: pishiq, olg‘ir, o‘tkir inson, **Oyday** – [өйдәй]-Ma‘nosi: juda ham yaxshi ma‘nosida qo‘lanilib, metafora, ya‘ni o‘shatish asosida yuzaga kelgan sifattir. **Qoruvli** – [қорувлы]-Ma‘nosi: kelishgan, baquvvat, **Qirit** – [қырыт]-Ma‘nosi: tozalikka judayam e‘tibor beradigan, **Sho‘tanoq** – [шөтәнәк]- Ma‘nosi: sho‘x-shaddod, **Suqsur** – [суқсур]-Ma‘nosi: bo‘ylari uzun va tik, chiroyli, **Suymakli** – [суймәклы]-Ma‘nosi: suyuqlik, yoqimtoy, Bundan tashqari keltirilgan lahjada ijobiy-salbiyligiga ko‘ra ma‘noviy betaraf sifatlarning ham talaygina. Bular:

**Bo‘tana** – [ бөтәнә]-Ma‘nosi: loyqa, xira, **Bo‘g‘oz** – [бөгөз]-Ma‘nosi: homilador, **Chimxo‘r** – [чымхөр]-Ma‘nosi: ovqat yemaydigan, **Dingillak** – [дыңыллак]-Ma‘nosi: sakraydigan, **Iri** – [Ыры]-Ma‘nosi: yirik, kata, **Jalpaq** – [жәлпәк]-Ma‘nosi: yapaloq, **Jamov** – [жәмәв]-Ma‘nosi: yamalgan, **Jetim** – [жәтым]-Ma‘nosi: otasi yoki onasi yo‘q, **Jo‘rma** – [ жөрмә]- Ma‘nosi: to‘qilgan, to‘qima, **Juqa** – [жуқә]-Ma‘nosi: yuqa/ yurqa, **Qolin** – [қәлын]-Ma‘nosi: qalin.

Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilarning nutqida uchrovchi rang nomlari ham o‘zbek tili leksikasining qay darajada boy ekanligining bir dalili desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Misol sifatida keltirib o‘tadigan bo‘lsak, bular quyidagilar:

**Noparmon** – [ нәпәрмән]-Ma‘nosi: och pushti, **Pistaqi** – [ пистәқы]-Ma‘nosi: yashil, **Qorovut** – [қәрәвүт]-Ma‘nosi: qoraroq, **Qulpi** – [құлпы]-Ma‘nosi: binafsharang, **Sur** – [сүр]-Ma‘nosi: kulrang, oq va qora aralash.

Yuqorida keltirilgan sifatlarning morfemik tarkibi ham alohida ahamiyatga molik. Aynan shu hudud leksikonidagi fe‘llar, otlar, ravishlar ham alohidalikka egaligini e‘tiborga olib, kelajakda mana shu hudud so‘zlarining izohli lug‘atini tuzish va shu orqali o‘zbek tilining

lugʻat manbasi qay darajada boy ekanligini yana bir bor isbotlashni oʻz oldimizga maqsad qildik.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mahmud Qoshgʻariy, —Devonu lugʻotit turkll asari.
2. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. Toshkent-2013. – b. 4-6
3. Qurbonov Z. M.Oltinova, —Samarqand tuman —Naymanll MFYning sheva xususiyatlari ustida qisqacha mulohazalarll International journal of discourse on innovation, integration and education,Vol. 2 No. 2 (2021): Vol. 2 Issue 2, 2021
4. www.lex.uz
5. www.ziyo.net